

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

"TASDIQLAYMAN"

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining birinchi o'rinbosari

K. Karimov

2023-yil _____ dekabr _____



PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

**AXBOROT-RESURS MARKAZI (KUTUBXONACHI) XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH KURSINING
O'QUV DASTURI**

Toshkent - 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

**Axborot-resurs markazi (kutubxonachi) xodimlari malakasini oshirish kursining
o‘quv dasturi Professional ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy kengashining 2023-
yil _____dagi __-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya
etilgan**

Tuzuvchilar:

Institut boshqarma boshlig'i **A.Xayitov**,
Kafedra mudiri **N.Sirojiddinova**
Institut bosh mutaxassislari **F.Yusupov**,
A.Zakirov, **N.Charshanbiyev**.

Taqrizchi:

O‘zDSMI, “Kutubxona axborot faoliyati”
fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi,
dotsent **S.X.Davlatov**

Toshkent-2023

KIRISH

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son, 2022-yil 29-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmonlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son, 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohatlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son qarori ijrosini ta'minlash.

Axborot-resurs markazi (kutubxonachi) xodimlarini malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadbiq etish yo'li bilan professional ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida Axborot-resurs markazi (kutubxonachi) xodimlarini malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini kredit-modullari orqali muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi Davlat siyosati, ta'limda boshqaruv, boshqaruvda huquqiy masalalar, moliyaviy-iqtisodiy masalalar, mas'uliyat va moslashuvchanlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, o'zini-o'zi rivojlantirish, Tinglovchilar bilimini baholash bloklarini o'z ichiga olib, ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan Axborot-resurs markazi (kutubxonachi) xodimlari malakasini oshirishning mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, ta'lim muassasasi rahbar kadrlarining boshqaruvga oid zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tadbiq etish darajasini oshirishni nazarda tutadi.

Bevosita ta'lim muassasasida malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi bloklaridan iborat:

1. Ta'limda boshqaruv

2. Boshqaruvda huquqiy masalalar
3. Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar
4. Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik
5. Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik

6. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish
7. O'zini-o'zi rivojlantirish
8. Tinglovchilar bilimni baholash

Malaka oshirish kursning maqsadi va vazifalari

Axborot-resurs markazi (kutubxonachi) xodimlari uchun tashkil qilinadigan malaka oshirish kursining maqsadi - ta'lim muassasalarini boshqarish, ta'lim muassasalarini boshqarishning huquqiy, ma'naviy ma'rifiy masalalari, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, malaka talablari asosida ularning boshqaruvga oid kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy- me'yoriy asoslarini singdirish;

- axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirishga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar;

- bibliografiya va informatika sohasidagi metodik materiallar;

- zaruriy o'quv adabiyotlar, darsliklar fondini tashkil etish va buyurtmalar berish;

- kirim qilingan manbaalarni saqlash, abonentlarning foydalanishiga sharoit yaratish;

- raqamli texnologiyalar va elektron dasturlar bilan ishlash;

- kutubxona xodimining boshqa kutubxonalar, milliy madaniy markazlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

- kitobxonlar bilan ishlashda muloqot madaniyatini rivojlantirish;

- yoshlarning intellektual, madaniy va ma'naviy individual ehtiyojlarini qondirish;

- axborot-kutubxona jarayonlari texnologiyasini amaliyotga joriy etishni rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablar

Malaka oshirish kursi o'quv rejasining "Ta'limda boshqaruv", "Boshqaruvda huquqiy masalalar", "Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar", "Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik", "Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik", "Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish", "O'zini-o'zi rivojlantirish" bloklari bo'yicha

tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalariga qo'yiladigan talablar tegishli yo'nalish bo'yicha professional ta'lim muassasalari direktorlari malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

O'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quydagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda komitensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- davlatimizning ta'lim tizimiga oid, axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirishga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarini;

- axborot-kutubxona nazariyasi va amaliyotini, metodik ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirish usullarini;

- davlatimiz va xorij davlatlar ilm-fanining bibliografiya va axborot sohasidagi yutuqlari hamda axborot-kutubxona jarayonlari texnologiyasini;

- bibliografiya va informatika sohasidagi metodik materiallarni;

- muassasa faoliyatiga qo'yilgan sanitariya-gigiena talablariga, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni.

- kutubxonalarning jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyi kabi ilg'or tajribalarni bilishi kerak.

Tinglovchi:

- o'quvchi va pedagog xodimlarning kitobxonlik so'rovnomalari va ehtiyojlarini maksimal darajada to'liq qondirish;

- kutubxonaning istiqbolli va joriy rejalarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini ta'minlash;

- o'quvchilarning talabiga muvofiq adabiyotlar berilishi va qabul qilishini amalga oshirish;

- o'quvchilarning o'quv predmetlarini muvaffaqiyatli o'rganishlari, ta'limiy va siyosiy bilim asoslarini puxta o'zlashtirishlari maqsadida ularga mutolaani tashkil etishda yordam berish;

- o'quvchilarning kitob bilan mustaqil ravishda ishlashga, ma'rifiy kitoblarni ko'prok o'qishga da'vat etish, har bir o'quvchini mustaqil ravishda va muntazam mutolaa qilishga jalb etish;

- kutubxonada o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'qituvchilarga, kitoblar bilan ishlashda yaqindan yordam berish;

- o'quvchilarni kutubxona-bibliografiya savodi asoslari, mutolaa madaniyati bilan tanishtirish, ularga axborot manbalari hamda kitoblar bilan ishlash malakalarini singdirish;

- o'quvchilarning yoshi, psixologik va ijtimoiy ahvoli kitobxonlar bilan ishlashning shakli va usullarini belgilash;

- zaruriy o'quv adabiyotlar, davriy nashrlar, badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar, ma'lumotnomalar va bibliografik qo'llanmalar, metodik adabiyot bilan tushirish, darsliklar fondini tashkil etish bo'yicha rahbariyatga taklif kiritish;

- tavsiya etiladigan badiiy adabiyotlar ro'yxatini tuzish va o'quvchilarga yetkazish, individual va jamoaviy tarzda xabardor etish;

- kirim qilingan kitob va gazeta-jurnallarni saqlanishi, o'quvchilarning foydalanishi uchun sharoit yaratish;
- elektron darsliklar, video darsliklarni axborot-resurs fondiga kiritib borish;
- mehnat intizomiga qat'iy rioya qilish;
- axborot-kutubxona jarayonlari texnologiyasini amaliyotga joriy etishni rivojlantirish jarayonlari bo'yicha ***ko'nikma va malakalarga*** ega bo'lishi kerak.

Kurs hajmi

Malaka oshirish kursining davomiyligi bir oy 24 kredit 144 soatni tashkil etadi. Malaka oshirish toifasi bo'yicha ta'lim dasturlari bo'yicha kredit ballarini to'plagan va modullarni to'liq o'zlashtirgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Axborot-resurs markazi (kutubxonachi) xodimlari malakasini oshirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

I. TA'LIMDA BOSHQARUV

1.1. O'zbekiston Respublikasida Axborot resurs markazi sohasi (kutubxona)ga oid davlat siyosati

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining mazmun mohiyati. 2019-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. Axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari. Axborot-kutubxona faoliyatidagi islohotlar. Axborot resurs markazi sohasini elektronlashtirishda davlat siyosati.

1.2. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va "O'zbekiston - 2030" strategiyasining mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mazmuni. Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-67-son farmoni mazmuni. Konstitutsiya yoshlar bilim olishining qonuniy asosi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mazmun mohiyati. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi: maqsadlar va kutilayotgan natijalar.

II. BOSHQARUVDA HUQUQIY MASALAR

2.1. Axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirishga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi qonun. Axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirishga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar. Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning xalqaro miqyosidagi va mamlakatimizdagi huquqiy me'yoriy asoslari. Axborot-kutubxona faoliyatiga tegishli vazirlikning buyruqlari mazmuni. Axborot-kutubxona faoliyatida me'yoriy-hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasi. Axborot-resurs markazi xodimlariga qo'yiladigan talablar. 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturining mazmun mohiyati. Kitob maxsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish buyicha normative-huquqiy hujjatlar.

2.2. Bibliografiya va informatika sohasidagi metodik materiallar

Bibliografiya va informatika sohasidagi metodik materiallar mohiyati. Bibliografik maxsulotlar haqida tushuncha va ularning ahamiyati. Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik. Hujjatlarni bibliografik tavsiflash bosqichlari va ketma-ketligi. Vaqtli va davomli nashrlarni bibliografik tavsiflash. ARMdagi

nashrlarning bibliografik hisobini yuritish. Bibliografik yozuv va uning husuiyatlari, bibliografiyalash texnologiyasi. Bosma maxsulotlarni nashr etish. Nashriyotlar. O'zbekistonda milliy va davlat bibliografiyasi. Retrospektiv bibliografik qo'llanmalar. Nashriyot va kitob savdosida bibliografik qo'llanmalar. Kutubxonalarda, axborot-kutubxona markazlarida bibliografik qo'llanmalar bilan ishlash, ularni tuzish, ularning turlari va xususiyatlarini o'rgatish.

III. BOSHQARUVDA MOLIYAVIY-IQTISODIY MASALALAR

3.1. Zaruriy o'quv adabiyotlar, darsliklar fondini tashkil etish va buyurtmalar berish

Zaruriy o'quv adabiyotlar buyurtmalar berish tartibi. Darsliklar fondini tashkil etish va buyurtmalar berish. Axborot-kutubxona resurslarini hisobga olish, fondlarni saqlash va hisobdan chiqarish. Axborot-kutubxona fondini hisobga olish obyektlari va birliklari. Axborot-kutubxona muassasalarining bosh katalogini tuzilishini tahlil qilish. Axborot-kutubxona fondini tekshirish. Axborot-kutubxona muassasalarining huquqlari va majburiyatlari. Axborot-kutubxona resurslarini fond hisobidan chiqarish. Foydalanuvchilar tomonidan yoki boshqa muayyan sabablarga ko'ra yo'qotilgan axborot-kutubxona resurslarini fond hisobidan chiqarish.

3.2. Kirim qilingan manbaalarni saqlash, abonentlarning foydalanishiga sharoit yaratish.

Kirim qilingan manbaalarni saqlashning zamonaviy shakllari. Abonentlarning foydalanishiga sharoit yaratish. Elektron buyurtmalar berish masalalari. Axborot-kutubxona muassasalarining axborot-kutubxona fondlarini saqlash masalalari. Yagona nusxadagi qimmatbaho kitoblar va nodir kitoblar va alohida qimmatli nashrlarni saqlash. Fondni tashkil etish jarayonida uning butligini ta'minlash. Doimiy saqlanadigan (muddatsiz) axborot-kutubxona resurslari. Kutubxonalararo abonement. Foydalanuvchining buyurtma varaqasi.

IV. BOSHQARUVDA MAS'ULIYAT VA MOSLASHUVCHANLIK

4.1. Kutubxonaning jamiyatdagi o'rni va mavqeyi

Kutubxonaning jamiyatdagi o'rni va mavqeyi. Kutubxona-axborot muassasalarini boshqarish tizimi. Kutubxona-axborot faoliyati ijtimoiy-madaniy tizimining tuzilmasi va asosiy qirralari. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining rivojlanish istiqbollari. Kutubxonalarning jamiyatdagi o'rni, maqsadi va vazifalari. Mutolaa ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida. Jadidchilar milliy kutubxonalar asoschilari.

V. BOSHQARUVDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI VA MEDIASAVODXONLIK

5.1. Raqaml texnologiyalar va elektron dasturlar bilan ishlash

Raqamli texnologiyalarning yoshlarga ta'siri. Axborot texnologiyalariga oid XXI asrga xos bo'lgan hayotiy ko'nikmalar. Raqamli texnologiyalar sohasida yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar. Kutubxona faoliyatida amaliy dasturiy vositalardan foydalanish. Elektron xujjatlarini yaratishda Microsoft office paketidan samarali foydalanish. Mualliflik dasturlari yordamida elektron kitoblar yaratish. Kutubxonadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda mualliflik dasturlari imkoniyatlaridan foydalanish (iSpring Suite, FlipPDF va boshqa dasturlar yordamida). Interaktiv 3D kitoblar yaratish texnologiyasi. Kutubxona faoliyatini rivojlantirishda ko'mak beruvchi tarqatma materiallari tayyorlash texnologiyasi (EdrawMax dasturi misolida). Internet tarmog'i va uning imkoniyatlari. Internet xizmatlari. Ta'lim portallari onlayn kutubxona resurslari va ulardan ish jarayonida foydalanish. Ziyonet portali resurslari (library.ziyonet.uz – elektron kutubxona, foreign.ziyonet.uz – xorijiy tillarni o'rganish, ask.ziyonet.uz – savol-javoblar xizmati, abiturient.ziyonet.uz. Kutubxona faoliyatida elektron ta'lim kontentlarini yaratish (Web Page Maker, Auto Play Media Studio va boshqa dasturlar yordamida).

VI. KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

6.1. Kutubxona xodimining boshqa kutubxonalar, milliy madaniy markazlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish

Kutubxona xodimining boshqa kutubxonalar bilan hamkorlik masalalari. Kutubxona xodimining milliy madaniy markazlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. O'zbekiston Milliy kutubxonasining elektron bazalari bilan ishlash metodikasi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari bilan hamkorlik.

6.2. Kitobxonlar bilan ishlashda muloqot madaniyatini rivojlantirish

Kitobxonlar bilan ishlashda muloqot madaniyatini rivojlantirish. Kitobxonlarning axborot madaniyatini tarbiyalash shakllari. O'quvchilarni kitobxonlikka qiziktirishda muloqotning o'rni. Muloqot madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari. Kutubxona xodimining muloqot madaniyati. Kitobxonlar bilan ishlash metodikasi va adabiyotlar targ'iboti.

6.3. Yoshlarning intellektual, madaniy va ma'naviy individual ehtiyojlarini qondirish

Yoshlarning intellektual, madaniy va ma'naviy individual ehtiyojlarini qondirishning mazmun mohiyati. Yoshlarning madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish, ma'rifiy-mafkuraviy bilimlarini hosil qilish. Ta'lim muassasasida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, tanlovlar, sport musobaqalari o'tkazish. Sog'lom

ma'naviy ehtiyojni shakllantirish usullari. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni aniq maqsadga yo'naltirish. Yoshlarning o'z-o'zidan begonalashuv holatini bartaraf qilish shakllari. Yoshlarning madaniy va ma'naviy individual ehtiyojlarini o'rganish mexanizimlari.

VII. O'ZINI-O'ZI RIVOJLANTIRISH

7.1. Xorijiy davlatlar ilim-fanining bibliografiya va axborot sohasidagi yutuqlari

Xorijiy davlatlar ilim-fanining bibliografiya va axborot sohasidagi yutuqlari. Xorijiy mamlakatlarda kutubxonachilik ishi. G'arb mamlakatlarining kutubxona-axborot sohasidagi yutuqlari. Sharq mamlakatlarining kutubxona-axborot sohasidagi yutuqlari. Kutubxona-axborot muassasalarida foydalanayotgan texnologik jarayonlar. O'zbekistonda sohaning rivojlanish istiqbollari.

7.2. Axborot-kutubxona jarayonlari texnologiyasini amaliyotga joriy etishni rivojlantirish

Axborot-kutubxona jarayonlari texnologiyasini amaliyotga joriy etishni rivojlantirish. Kutubxona faoliyatini rivojlantirish tendensiyalar. Kutubxona ishini samarali tashkil etish va boshqarish metodikasi. Shaxsning axborot olish madaniyati. Ta'lim muassasasi kutubxona hujjatlarining yuritilishi. Kutubxona faoliyatini rivojlantirishining kelajak istiqbollari. Kutubxona ishini samarali tashkil etish va boshqarish metodikasi.

7.3. Ehtiyojga asoslangan modullar

Ehtiyojga asoslangan modullar ishchi o'quv rejasida aks ettirilib, tinglovchilar tanlovi asosida tashkil etiladi. Tinglovchilar tanlagan modullarga 2 kreditdan oshib ketmagan holatda soatlar taqsimlanadi.

VIII. TINGLOVCHILAR BILIMINI BAHOLASH

8.1. Malaka oshirish kursida tinglovchilar belgilangan modullar bo'yicha 56 foizdan yuqori o'zlashtirsa, modul uchun ajratilgan kredit beriladi. Tinglovchilar belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi. Tinglovchilar bilimni baholash har bir blok va uning modullarining mazmunidan testlar shakllantiriladi va belgilangan talablar bo'yicha amalga oshiriladi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-208-2011-yil 13-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son farmoni.
6. 2022-yil 29-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son farmoni.
7. "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4884-son qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-son qarori.
11. 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohatlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qaror.
12. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 106-son qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-sentabrdagi PQ-3271-sonli «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida» Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-114-sonli «Ma'muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-iyuldagi PQ-3160-sonli «Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli «Yoshlarni ma'naviy – axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim – tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora – tadbirlari to'g'risida» Qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-3721-sonli «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida» Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5172-sonli «Qarori. Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son «Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi 781-sonli «2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida» Qarori.
22. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston» 2021.- 440 b.
23. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda.//«Yangi O'zbekiston», 2021-yil, 17-avgust. 5 bet
24. I.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» ikkinchi nashr - Toshkent: «Ma'naviyat» 2011. -19 b.
25. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: «O'zbekiston». 2022. -267 b.
26. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2016-yil 19-oktabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi saylovoldi ma'ruzasi

Asosiy adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X., va b. Personalni boshqarish. Darslik.-T.: «Iqtisodiyot», 2013.
2. Ansoff I. Strategicheskiy menedjment / SPb.: Piter, 2009.
3. Barinov V.A., Xarchenko B.L. Strategicheskiy menedjment. — M.: Infra-M, 2005.

4. Bibliografiyashunoslik fanidan o'quv-uslubiy majmua. Namangan davlat universiteti. 2021-yil.

5. Yo'ldoshev, E. Hujjat fondlari [matn]: Madaniyat instituti Kutubxona va axborot faoliyatini boshqaruv fakulteti talabalari, magistr va aspirantlari uchun o'quv qo'llanma/ E. Yo'ldoshev, M. Rahimova; Muharrir R. Jomonov; O'zb. Res. Madaniyat ishlari vazirligi.-Toshkent: O'z R FAAK, 2004.-152 b.

6. G'aniyeva B.I. Kutubxona kataloglari: Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma / G'aniyeva B.I. : Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-marifiy ishlar ilmiy - metodik hamda axborot markazi. -TDMI, 2012. -135 b.

7. Принципы каталогизации и систематизации информационно-библиотечных ресурсов [Электронный ресурс]: методическое пособие /Национальная библиотека Узбекистана имени Алишера Навои. – Электрон. дан. – Ташкент: Изд-во Нац. б-ки Узбекистана имени Алишера Навои, 2016. – 13 с. - Режим доступа: <http://natlib.uz/Content/userfiles/upload/>

8. <http://libraru.asademu.uz/dissertatsiualar/> Fanlar Akademiyasi Fundamental kutubxonasi © 2020

9. <https://arboblar.uz> 2023 Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yisha Yagona integrator UZINFOSOM

Internet manbalari:

1. <https://onlinedu.uz/>
2. <http://lex.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.uzedu.uz>
5. <http://www.lex.uz>
6. <http://www.bimm.uz>
7. <http://www.ziyonet.uz>
8. <http://www.wikipedia.org>
9. <http://www.oecd.org>


Профессионал таълимни ривожлантириш институти
профессионал таълим муассасалари ахборот-ресурс маркази
(кутубхоначи) ходимлари малакасини ошириш курсининг
ўқув дастурига
ТАҚРИЗ

Профессионал таълим муассасалари ахборот-ресурс маркази (кутубхоначи) ходимлари учун ташкил қилинадиган малака ошириш курсининг ўқув дастури бугунги кундаги кутубхонашуносликка бўлган талаблар асосида ишлаб чиқилган бўлиб, унда тингловчилар билиши керак бўлган энг долзарб ва замонавий мавзуларни ўз ичига қамраб олган.

Дастур доирасида тингловчиларга жамиятда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар мазмуни ва таълим-тарбия жараёнларини ташкил этишнинг ҳуқуқий- меъёрий асослари, таълим муассасалари ахборот-ресурс маркази (кутубхоначи) ходимларига соҳанинг илғор технологиялари ва хорижий тажрибаларни ўргатиш, соҳа ходимларининг мафкуравий компетентлиги ва масъулиятини ошириш, ахборот-ресурс маркази (кутубхоначи) ходимларига ўз йўналишларида оптимал қарорлар қабул қилиш технологияларини ўргатиш, ходимларни малака талабларига мос ҳолда касбий билим, кўникма ва малакаларини замонавий ёндашувлар ва инновациялар асосида узлуксиз ривожлантириш масалалари ёритилган.

Дастур мазмуни Ўзбекистон Республикасининг таълим соҳасидаги Давлат сиёсати, таълимда бошқарув, бошқарувда ҳуқуқий масалалар, молиявий-иқтисодий масалалар, масъулият ва мослашувчанлик, ахборот коммуникация технологиялари ва медиа саводхонлик, коммуникатив кўникмаларни ривожлантириш, ўзини-ўзи ривожлантириш, Тингловчилар билимини баҳолаш блокларини ўз ичига олиб, улар бўйича тегишли компетенцияларни, янги билим, кўникма, малакаларни шакллантиришга йўналтирилган.

Ўқув дастури дастурларни ишлаб чиқиш талаблари асосида ишлаб чиқилган бўлиб ушбу дастурни амалиётга жорий этиш мумкин деб ҳисоблайман.

ЎзДСМИ, "Кутубхона-ахборот фаолияти" факультети
декани, филология фанлари номзоди, доцент  С. Х. Давлатов

